



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.
B.INING
BUYRUG'I**

2024 yil "15" yanvar 01298-edo - son

**2023/2024 o'quv yilida oliy ta'lif muassasalari magistratura bosqichi
talabasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasini
tayinlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 5-fevraldag'i PF-555-son, 2021-yil 9-sentabrdagi PF-6309-son farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son qaroriga hamda Oliy ta'lif, fan va innovasiyalar vazirining 2023-yil 4-dekabrdagi "2023/2024 o'quv yili uchun respublika oliy ta'lif muassasalari bakalavriat bosqichi talabalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash to'g'risida"gi 516-sonli va 2023-yil 29-dekabrdagi "2023/2024 o'quv yili uchun respublika oliy ta'lif muassasalari magistratura bosqichi talabalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasini tayinlash to'g'risida"gi 554-sonli buyruqlari ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovasiyalar vazirining 2023-yil 29-dekabrdagi "2023/2024 o'quv yili uchun respublika oliy ta'lif muassasalari magistratura bosqichi talabalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasini tayinlash to'g'risida"gi 554-sonli buyrug'i ijro va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. S.I. Do'stmurodov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.Gaipov, Bosh buxgalter B.I.Alijanova valarga:

2023/2024 o'quv yili uchun magistratura bosqichi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga sazovor bo'lgan Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rinnarda – TTA) Kardiologiya yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi (3-bosqich) magistratura talabasi Ulug'bek Ilxonjon o'g'li Ismoilovga 2023/2024 o'quv yili uchun 2023-yil 1-sentabridan 2024-yilning 30-mayiga qadar belgilangan miqdorda Prezident davlat stipendiyasi to'lansin;

TTA tomonidan Sog'lijni saqlash tanlov yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga sazovor bo'lgan U.I. Ismoilovni tayyorlagan Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova va U.I. Ismoilovni ilmiy rahbari 1-son Oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasini mudiri t.f.d., professor N.M. Nurillaevlarga belgilangan tartibda bir oylik maoshi miqdorida moddiy rag'batlantirilsin;

3. Kelgusi o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari tanloviga nomzodlarni tavsiya etish, ularning hujjatlar yig‘ma jildlarini rasmiylashtirish va vazirlikka belgilangan muddatlarda taqdim etilishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Talabalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risida Nizom” talablariga qat’iy amal qilgan holda tashkil etilishi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova va Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikovalar zimmasiga yuklatilsin.

4. Bir oy muddatda fakultet dekanatlari bilan hamkorlikda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida tahsil olayotgan talabalar orasidan maqsadli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga nomzod iqtidorli talabalarni tanlash, ro‘yxatini shakllantirish, kafedra professor-o‘qituvchilariga biriktirish va nomzodlar bilan tizimli ishlar olib borish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish barcha fakultet dekanlari, Magistratura va klinik ordinatura bo‘limi boshlig‘i A.A. Imamov va Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikovalar zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur buyruq ijosini nazorat Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Buyruq kelishuvi

Tayyorladi:

F.Abdumalikova

Bo‘lim boshlig‘i

Kelishildi:

F.Azizova

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor**

S.Dustmuradov

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor

O.G'aipov

Bo‘lim boshlig‘i

B.Alijanova

Bosh buxgalter

Sh.Islomqulova

Yuriskonsult

A.Imamov

Bo‘lim boshlig‘i